

**TURLI JUN KONSTITUTSIYA TIPIDAGI QORAKO‘L QO‘YLARINING JUN
MAHSULDORLIGI.**

**ПРОДУКТИВНОСТЬ КАРАКУЛЬСКИХ ОВЕЦ РАЗНОГО ТИПА
КОНСТИТУЦИИ ШЕРСТИ**

**PRODUCTIVITY OF KARAKUL SHEEP OF DIFFERENT TYPES OF WOOL
CONSTITUTION**

Rizaeva Dilfuza Taxirovna

*katta o‘qituvchi, q.x.f.f.d. (PhD), Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti,
Samarqand shahri, dilfuzarizayeva83@gmail.com*

Ризаева Дилфуза Тахировна

*старшая преподаватель, (PhD), Самаркандский государственный университет
ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологии, город Самарканд,
dilfuzarizayeva83@gmail.com*

Rizayeva Dilfuza Takhirovna

*Samarkand State University of Veterinary Medicine, Animal Husbandry
and Biotechnology, Samarkand city, dilfuzarizayeva83@gmail.com*

Annotatsiya. *Maqolada qorako‘lchilik xo‘jaliklarida turli jun konstitutsiya tipidagi qorako‘l qo‘zilarining tirik vazni va junining uzunligini o‘rganilgan va tahlili keltirilgan.*

Аннотация. *В статье изучены и проанализированы живая масса и длина шерсти каракульских ягнят разного типа конституции шерсти в животноводческих хозяйствах.*

Abstract. *The article studied and analyzed the live weight and wool length of Karakol lambs of different types of wool constitution in livestock farms.*

Kalit so‘zlar. *Qorako‘l qo‘zilari, tirik vazni, junning uzunligi, jun konstitutsiya tipi, jun tolasi*

Ключевые слова. *Каракульские ягнята, живая масса, длина шерсти, тип конституции шерсти, волокна шерсти*

Keywords. *Karakol lambs, live weight, wool length, wool constitution type, wool fibers*

Qorako‘lchilik sohasi Respublika agrar sektorining rentabellik bilan ishlayotgan muhim tarmog‘idan biridir. Qorako‘l zotidan olinadigan asosiy mahsulotlar qatoriga barra

teri, dag'al qo'y juni va go'sht kiradi. Mamlakatimizda etishtiriladigan barcha jun turlarining 70-80% ni qorako'l qo'ylar juni tashkil qiladi.

Qorako'lchilik xo'jaliklarida junni qayta ishlash tizimi etarli darajada tashkil etilmagan. Shu boisdan bu mahsulot isrof bo'lib qolmoqda. Aslida junni qayta ishlash koni foyda, tabiiy jundan tayyorlangan kiyim-kechakning inson tanasiga beqiyos kuch ato etishini, bu ne'matning o'rnini hech narsa bosolmasligini ham tibbiyot allomalari bot-bot isbotlaganlar.

Demak, Prezidentimiz tashabbuslari bilan boshlab berilgan tub iqtisodiy islohotlar o'z mevalarini ko'rsatadigan zamon keldi, chorvador tumanlarda ham junni va terini qayta ishlash korxonalari paydo bo'la boshladi yoki yirik korxonalar xuddi shu joylarda kasanachilikni tashkil etmoqdalar, bebaho ne'mat — teri va jun burungidek qadr topmoqda. Darvoqe, amalga oshishi uchun mahalliy hokimliklar yurtboshimizning xalqparvar siyosatlarini qo'llab-quvvatlagan holda amalga oshirish lozim deb o'ylaymiz.

Qorako'lchilikning iqtisodiy samaradorligini oshirish va olinadigan mahsulotning raqobatbardoshligini ta'minlash qo'ylar mahsuldorligining o'sishi va undan olinadigan mahsulotlar miqdori va sifatining yaxshilanishiga bog'liq. Har xil jun konstitutsiya tipidagi qorako'l qo'ylarining mahsuldorligi ham turlichadir. Shunday ekan, Har xil jun konstitutsiya tipidagi qorako'l qo'ylarining mahsuldorlik ko'rsatkichlarini o'rganish dolzarb mavzu hisoblanadi.

Qorako'l qo'ylarining juni mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan junning eng ko'p qismini tashkil etib, bu to'rdagi junlar gilam to'qish va sukno sanoati uchun eng qimmatbaho xom ashyo hisoblanadi. Bu bizning sanoatimizda ishlatiladigan jami junning 2/3 qismidan ham ko'proqdir.

Qorako'l qo'ylarining juni oldinlari qorako'lchilik xo'jaliklariga anchagina daromad keltiruvchi mahsulot bo'lib hisoblanar edi. Hozirgi kunga kelib qorako'lchilik xo'jaliklari junni sotishi foyda keltirmay qo'ydi. Buning eng asosiy sababi junni qayta ishlash va sotish bozorini tashkil etilmaganligi bilan bog'liq bo'lib qolmoqda va bundan tashqari elektr energiyasi, transport, moylash materiallarning yuqori bo'lishi ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi deb o'ylaymiz. Oldinlari qorako'lchilik xo'jaliklarining junni sotishdan oladigan daromadi jami olinadigan jami daromadning 35 – 40 foyizini tashkil qilardi. Qorako'l qo'yi juni dag'al junlar orasida barcha texnologik talablarga javob beraolganligi uchun to'qimachilik sanoatida ishlatish imkoniyati bor. Shu munosabat bilan S.R.Bozorov (2005) «Qorako'l qo'ylarining junidan to'qilgan matolar ko'p xususiyatlarga ko'ra kostyumbop matolar (sheviot) qatoriga kiradi. Bu matolar (gazlamalar) etarli darajada elastiklikga, mustahkamlikka va qoniqarli darajadagi tashqi ko'rinishi bilan duragay qo'ylarning junidan tayyorlangan gazlamalardan qolishmaydi». Ma'lumki, qorako'l qo'ylarining jun mahsuldorligi va junning sifati qo'ylarning konstitutsiya va barra tiplariga, yaylovda boqish sharoitiga, ularning semizligiga, jinsi, yoshi, rangi, necha marta qirqilganligiga va boshqalarga muayyan darajada bog'liq. Adabiyot ma'lumotlariga ko'ra, qorako'l qo'ylarining jun mahsuldorligi ularning barra tipiga ham bog'liq ekan.

Chorvachilik klassifikatsiyasiga ko‘ra qorako‘l qo‘ylari 4 ta jun konstitutsional tipga bo‘linadi:

1. «G‘o‘zamay» – mustaxkam jun konstitutsiyali tip bo‘lib, suyak va muskullarining normal rivojlanganligi, gavdasining proportsional to‘zilganligi bilan xarakterlanadi. Bu jun konstitutsiya tipidagi hayvonlar serharakat, chidamli va a‘lo darajada sog‘lomdir. Junlari o‘rta sifatda bo‘lib, qirqim miqdori ancha ko‘pdir.

2. «Oq gul» – dag‘al jun konstitutsiya tip suyaklari yirik va salmoqli, muskullari yaxshi rivojlangan, keng to‘shli, boshi og‘ir va do‘ng qang‘sharli, oyoqlari kalta. Terisi qalin, dag‘al va bo‘sh. Juni dag‘al, salgina jingalaklangan kokilchalari ajralib to‘ruvchi, tarkibidagi qiltiq tolalarining miqdori anchagina.

3. «Nozik» – suyak va muskullarining yaxshi rivojlanganligi bilan xarakterlanadi. boshi tik, kichik gavdasi, bosh engilligi va oyoqlarining uzunligi bilan ajralib turadi. Terisi yupqa, biroz bo‘shroq. Jun qoplami sertivit, qiltiq tolalari nisbatan o‘ta kam, eng yuqori sifatli bo‘lib, mayda-mayda kokilchalardan tuzilgan.

4. «Qirriq» – o‘rtacha rivojlangan jun konstitutsional tip bo‘lib, suyaklarining engilligi va kam rivojlanganligi, boshi engil va nozikligi bilan xarakterlanadi. Bu qo‘ylarning gavda to‘zilishi besunaqay. Jun qoplami o‘ta quruq, kalta, tarkibida tivit tolalari ko‘p bo‘lib, ular bilan bir qatorda anchagina miqdorda o‘lik junlar ham uchraydi. Bu xil qo‘ylarning jun mahsuldorligi o‘ta past bo‘lib, qirqilgan junlarning sifati ham pastdir.

Qorako‘l qo‘ylarining jun konstitutsiya tiplariga, ularning naslchilik ishlarina yuritishlardan birinchilar qatorida S.Yusupov boshchiligidagi olimlar (2000) katta ahamiyat berdilar. Ularning ta‘kidlashlaricha, qo‘ylarning jun – konstitutsiya tiplari ulardan olinadigan qorako‘l qo‘zilar terisiga katta ta‘sir ko‘rsatar ekan.

Ma‘lumki, organizmning rivojlanishi miqdor va sifat o‘zgarishlaridan tashkil topadi. Organizmning rivojlanish jarayonida yuz beradigan miqdor o‘zgarishlari differensirovka (tabaqalanish) deb ataladi.

S.YU.Yusupov (2010) Hayvonlarning o‘sishi nasliy xarakterga ega bo‘lib, ushbu salohiyatning yuzaga chiqishi organizm, genotipning tashqi muhitga reaksiyasi natijasida amalga oshiriladi.

Embrional davrda ona organizmidagi muhit sharoiti avlodlarning shakllanishida hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Qorako‘l qo‘zilarning tirik og‘irligi ularning yashovchanligiga chambarchas bog‘liqdir. SH.A.Abduvaitov (1973) ning ta‘kidlashicha, chorva mollarining tirik og‘irligiga, asosan boqish, asrash, saqlash sharoiti va qo‘shimcha oziqa miqdori ta‘sir ko‘rsatadi.

S.R.Bozorovning (2004) fikricha, qo‘zilar to ajrim davrigacha juda tez rivojlanadi, albatta bu ko‘rsatkichga yaylov sharoitining ta‘siri borligini aytadi.

Bizning tajribamizda qo‘zilarning tirik og‘irligi quyidagi jadvalda keltirilgan.

Qo‘zilarning tirik og‘irligi, kg

Konstitutsiya tipi	Olingan qo‘zilar soni	M±m	S, %
Nozik	18	4,31+0,13	27,3
Mustahkam	82	4,67+0,19	25,8
Qo‘pol	26	4,01+0,22	25,1

Yuqoridagi jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, har xil konstitutsiya tipidagi qorako‘l qo‘zilarning tirik og‘irligi har xil bo‘lib, bunda nozik konstitutsiya tipidagi qorako‘l qo‘zilarning tirik og‘irligi eng past bo‘lib qo‘pol konstitutsiya tipidagi qorako‘l qo‘zilarning tirik og‘irligi nisbatan 600 grammga engil bo‘ldi. Mustahkam konstitutsiya tipidagi qorako‘l qo‘zilar oralik o‘rinni egallashdi tirik og‘irligi 4,31 kg ni tashkil qildi.

Konstitutsiya tipi har xil bo‘lgan qora qorako‘l qo‘zilarning jun tolasining uzunligi qo‘zilarning nasliy va qorako‘l terilarining tovar xususiyatlarini baholashda muhim belgi hisoblanadi. Turli gul tiplari va shakllarining jun tola uzunligi turlicha. Bu ko‘rsatkichning optimal (7-11 mm) uzunlikka ega bo‘lishi avlodlar va mahsulot siqatining yuqori darajada bo‘lishini ta’minlaydi.

S.Yu.Yusupov (2010), S.R.Bozorovlar (2013) jun tolasining qo‘zilar tug‘ilgan paytidagi uzunligi ularning konstitutsiya tiplari va rangi bilan ma’lum darajada bog‘liqlikda bo‘lishini kuzatganlar.

14-jadval

Jun tolasini uzunligi, mm

Konstitutsiya tipi	Olingan qo‘zilar soni	Dumg‘azasida		Orqa qirrasida	
		M±m	S, %	M±m	S, %
Nozik	18	11,83±0,16	14,0	13,42±0,16	12,8
Mustahkam	82	11,96±0,12	12,1	13,51±0,13	12,1
Qo‘pol	26	12,42±0,13	15,7	14,22±0,14	13,6

Yuqoridagi jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, jun tolasining uzunligi mustahkam konstitutsiya tipidagi qora qorako‘l qo‘zilarda dumg‘azasida kaltaroq bo‘lib, 11,96 mm ni, orqa qirrasida 13,51 mm ni tashkil qildi. Jun tolasining uzunligi qo‘pol konstitutsiya tipidagi qorako‘l qo‘zilarda uzunroq bo‘lib, dumg‘azasida 12,42 mm ni, orqa qirrasida 14,22 mm ni tashkil qildi. Nozik konstitutsiya tipidagi qo‘zilarda ushbu ko‘rsatkich dumg‘azasida 11,83 mm ni, orqa qirrasida 13,42 mm ni tashkil qildi.

Xulosa. Har xil jun konstitutsiya tipidagi qo‘zilarning mustahkam va nozik tipidagilarning tirik vazni yuqori bo‘lishligi, qo‘pol jun konstitutsiya tipidagi qorako‘l

qo‘zilarda jun tolasi uzunligi mustahkam va nozik konstitutsiya tipidagi qo‘zilarga nisbatan orqa qirrasida va dumg‘azasida nisbatan uzunroq bo‘ldi.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Yusupov.S.Yu., Bozorov S.R. Junga birlamchi ishlov berish texnologiyasi. Samarkand 1998
2. Юсупов С.Ю., Фозилов У., Газиев А. Фенотипический эффект генов - модификаторов каракульских овец. Ж.Зооветеринария №8. 2010
3. Базаров С.Р. - Продуктивность и биологические особенности каракульских овец окраски сур разных типов конституции. Автореф. Канд. Дисс. Ташкент, 2003
4. Ризаева, Д. (2019). Свойства волосяного покрова у каракульских ягнят разных смужковых типов. Овцы, козы, шерстяное дело, (4), 33-34
5. Rizaeva, D. T. (2021). Qualitative Indicators of the Wool Cover of Black Sheep in a Sandy Desert with Targeted Selection. International Journal of Development and Public Policy, 1(5), 318-320.
6. Газиев, А., Фазилов, У. Т., Маматов, Б. С., & Ризаева, Д. (2017). Селекция каракульских овец черной окраски в зоне песчаной пустыни. In Научно-практические пути повышения экологической устойчивости и социально-экономическое обеспечение сельскохозяйственного производства (pp. 1427-1430)
7. Ризаева, Д. Т., & Бахронов, О. Х. качественные показатели шерстяного покрова овец черной окраски qualitative indicators of black sheep wool cover. ББК 65.2 С56, 143.
8. Бошмонов, С., Ризаева, Д., & Сулаймонова, М. (2023). Qo‘uchilikni hozirgi holati va uni rivojlantirish istiqbollari. Актуальные проблемы пустынного животноводства, экологии и создания пастбищных агрофитоценозов, 1(1), 96-100.
9. Сулейманова, М. К., Ризаева, Д. Т., & Бошмонов, С. С. (2023). Влияние молочной продуктивности каракульских овец разной окраски на живой вес и прирост ягнят. Актуальные проблемы пустынного животноводства, экологии и создания пастбищных агрофитоценозов, 1(1), 127-129.
10. Ризаева, Д. Т., & Бахронов, О. Х. (2021). Качественные показатели шерстного покрова овец черной окраски в условиях песчаной пустыни.
11. SS, R. D. V. (2024). STATE OF SHEEP BREEDING AND DEVELOPMENT PROSPECTS. *Multidisciplinary and Multidimensional Journal*, 3(4), 23-28.
12. Шеркулова, Ф. Э., & Гаппаров, Ш. Т. (2023). ОРЕНБУРГ ЗОТЛИ ЭЧКИЛАРНИНГ ИССИҚ ИҚЛИМ ШАРОИТИГА МОСЛАШИШИ. *AGROBIOTEKNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI*, 241-246.